

ZAMONAVIY O'ZBEK OILALARIDA HOZIRGI KUNDAGI HOLATINI O'RGANISH

*OXU magstranti
Muhammadiyeva Zarnigor*

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda oila munosabatlari tahlil qilinib unda er-xotinning munosabatlari hamda ularning jamiyat hayotidagi o'rni ko'rsatilib o'tilgan. Shuningdek, qadriyatlarni oilani mustahkamlash yo'lidagi harakatlari ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Oila, qadriyat, tahlil, urf-odat, jamiyat, diniy nikoh, an'anaviy nikoh.

Annotation: In this article, family relations are analyzed and the relations of the couple and their role in the life of the society are shown. Also, efforts to strengthen family values were emphasized.

Key words: Family, value, analysis, tradition, society, religious marriage, traditional marriage.

Nikoh-oilani mustahkamlash jiddiy e'tibor qaratish lozim bo'lgan masalalar sirasiga kiradi. Mustahkamlovchi omilni aniqlashdan oldin ajralish muammosini va uni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish kerak. Yosh oilaning paydo bo'lishi va yashashini dastlabki kunlarida sodir bo'lgan ajralishlarning soni keskin ko'paymoqda. Jumladan, keyingi o'n yillikda ajralishlarning soni oshishi ko'pincha shahar muhitlarida istiqomat qiluvchi oilalarda kuzatilmoqda. Kuzatishlarga ko'ra, yosh er-xotinlarning ota-onasi, yakin qarindoshlari va moddiy qiyinchiliklar ajralishlarning asosiy sababchilari deb aytilmoqda.

Er-xotin ajralishining oqibatlari turlicha bo'lishi mumkin: psixologik, iqtisodiy va ijtimoiy. Erta ajralishlar natijasida mamlakatimizda yolg'iz onalarning soni ko'paymoqda, noto'liq oilalar yuzaga kelmoqda, yoshlar o'rtasida spirtli ichimliklarga ruju qo'yish kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Hozirgi kunda asosiy muammo nafaqat ajralishlarni sabablarini, balki ularni bartaraf etish chora-tadbirlarida ham kuzatiladi.¹ Oilaviy psixologik xizmatning metodologik asoslari sifatida talqin qilingan yuqoridagi fikr-mulohazalar ijtimoiy psixologiyaning quyidagi amaliy-tatbiqiyo yo'nalishlariga bugungi kunning eng dolzarb muammolari sifatida qarashni taqozo etadi. Muammoni keltirib chiqaradigan yana bir masala - gender sezuvchanligining rivojlanmaganlidadir.

¹ Rasulova Z.A. Zamnaviy o'zbeklarning oila-nikoh munosabatlari. - T.: "O'zbekiston milliy eniklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyot, 2013.-145 b.

Tadqiqotimizda yosh oilalarning gender sezuvchanligini aniqlash va masalani atroflicha o‘rganish natijasida aniqlandi, gender sezgirlik yosh oilalarda er-xotin munosabatlarning milliy qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq ekan. Ya’ni “oila” tuzilmasi shaxslararo va yosh psixologiyasidan kelib chiqqan holda ijtimoiy psixologiya obyekti va predmeti sifatida o‘rganishni taqozo etadi. “Oila” tuzilmasi nafaqat guruh tariqasida, balki ijtimoiy munosabatlarning alohida mexanizmiga xos bo‘lgan boshqarilish jarayonida ham o‘rganilishi lozim. Ko‘pchilik tadqiqotlarda oilaviy nizolarning sabab-oqibatlari va oila a’zolar o‘rtasidagi munosabatlar masalasi o‘rganilgan, lekin bu holatga kelmaslik uchun qanday yo‘l tutish lozimligi va uning boshqaruv tizimi ishlab chiqilmagan. Jamiyatda oila tizimining o‘ziga xos mavqeい nimadan iboratligi ko‘p marta ta’kidlanishiga qaramay, deyarli uning mexanizmi to‘liq yoritilmagan. Oqibatda “oila” tizimiga nisbatan noto‘g‘ri qarashlar shakllanib kelmoqda. Bugungi kunda oila tizimiga nisbatan qarashlar ancha eskirib qolgan. Ko‘pchilikning ongiga singgan tushuncha bo‘yicha “oila jamiyat bo‘lagi”. Oila va jamiyat orasidagi munosabatlar yuridik tomondan boshqarilishiga qaramay “Oila” tizimiga oid normalar yoki o‘ziga xos sanksiyalar ishlab chiqilmagan.² Masalan, oila sharoitida zo‘ravonlikning oldini olish yoki kimnidir majburiyatga tortish borasida meyo’riy hujjatlar ishlab chiqilgan. Ushbu chora-tadbirlar natijasida er yoki xotin ozodlikdan mahrum bo‘lganligiga qaramay o‘z oilasiga qaytib boradi va o‘zini xuddi ayblovchi kabi munosabatlarda yashashda davom etadi. Ba’zilar to‘g‘ri xulosa qilmay zo‘ravonlik harakatlarini isbotlashga urinib, salbiy munosabatlarini yanada kuchaytiradi. Yuzaga kelgan ishonchsizlik hissi zo‘riqish holatlarini yanada yuqori darajaga olib boradi.³ Statistik ma’lumotlarga ko‘ra oilalardagi zo‘ravonlik natijasida qurban bo‘lganlar soni va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilgan holatlarni ko‘rgan yoshlarda “oila” deb atalmish muqaddas tizimga nisbatan ishonch pasaya boshlaydi va bu o‘z o‘rnida nikohga nisbatan ham salbiy dunyoqarashni yuzaga keltiradi. Mazkur holatni muammolarning ichiga kirib tahlil qiladigan bo‘lsak, “oila” institutini alohida milliy qadriyatlar darajasiga olib chiqib, uning ustuvor rolini aniqlashimiz kerak. Ayniqsa, yosh oilalarda qadriyatlar tizimi va ijtimoiy rolli yo‘l-yo‘riq orasidagi bog‘lanishni buzilishi gender sezuvchanlikning pasayishi bilan bog‘liq.

Bu borada, o‘zbek oilasida er-xotin o‘zaro munosabatlari dinamikasini o‘rgangan olima G.I.Niyazmetovaning ishlari alohida e’tiborga molik.⁴ Unda, er-xotin o‘zaro munosabatlari dinamikasi tadqiq etilishi bilan birga, oilaviy hayotning “ichki” va “tashqi” olamiga murojaat qilinadi. Ya’ni oilaviy hayot, er-xotin munosabatlarning “ichki olami” deyilganda, faqat er-xotinning o‘zigagina taalluqli bo‘lgan, faqat

² Согинов Н.А. Социально-психологические особенности удовле-творенности браком в узбекской семье. Дис... канд. психол. наук. – Киев - 1990. - 213 с

³ Morgan L.G. Drevneye obshestvo ili issledovanii liniy chelovecheskogo proressa oi dikosti cherez varvarstvo k sivilizatsii. L.:1935. 368 s.

⁴Ergasheva M. Fitrat merosida nikoh va oila masalalari //Qonun himoyasida.-2003.-№4(88).-B.28.

ularning o‘zlarigina biladigan munosabatlar tizimi, sof psixologik jihatlar nazarda tutiladi. Oilaviy hayotning “tashqi olami”ning deyilganda esa, oilaviy hayotning u yoki bu jihatlarini er-xotindan boshqa odamlar ham boxabar bo‘lishi mumkin bo‘lgan, jamoatchilik fikri, qonun-qoidalar bilan boshqarish mumkin bo‘lgan jihatlarga e’tibor qaratiladi.

Mazkur ilmiy tadqiqot ishida ham o‘zbek oilasidagi gender munosabatlar, erkak va ayolning oiladagi mavqeい masalalariga katta e’tibor qaratilgan.

Globalizatsiya davrida oila instituti va nikoh-oila munosabatlarida gender muammolarning paydo bo‘lishi ularning yechimini topishga qaratilgan. Shu jumladan, etnopsixologik nuqtayi nazardan tajriba tariqasida o‘zbek oilalarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish lozimligi ma’lum bo‘ladi.

Yangi O‘zbekiston yangi davrda integratsiyalashuv natijasida bo‘layotgan o‘zgarishlar jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Natijada har bir oila a’zosining ijtimoiy va hissiy qoniqish jarayonini tadqiq qilishga qaratilgan usullar va uslublar ishlab chiqilmoqda; oilaviy psixologik xizmat shaxslarning (qaynona-qaynota, kelin-kuyov, er-xotin, farzand va h.k.) ijtimoiy jarayondagi o‘z-o‘ziga, o‘zgalarga munosabatlaridagi iyerarxik tizim dinamikasini tadqiq qilish va shu tizim asosida ijtimoiy psixologik muhitning yaratilishiga zamin hozirlay olishi bilan bog‘liq izlanishlar ko‘لامи kengaymoqda; oila a’zolari bilan bog‘liq muhim ijtimoiy ko‘rsatkichlarning tahlili hamda har bir shaxs uchun xarakterli bo‘lgan individual xususiyatlar va ijtimoiy yo‘l-yo‘riqlarni qaror toptirilishi jiddiy o‘rganilmoqda. Oilani ijtimoiy-psixologik muhofaza vositasi sifatida tadqiq qilish bugungi kunda ijtimoiy psixologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanar ekan, mazkur muammoni bartaraf etishda ilmiy jamiyatichilik umume’tirof etilgan muayyan psixologik tamoyillarga tayanish zaruriyati tug‘iladi.⁵ 2014 yildan to 2020 yilgacha ko‘ngilli, jamoatchilik asosida ish yuritiladigan markaz psixologlarning faoliyati asosan quyidagi vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan vazifalari bajarilgan bo‘lsa-da, ammo ajralishlarning soni ortib bormoqda. Milliy qadriyatlarni hisobga olgan holda oila bilan ish olib borishda navbatdagi psixologik vazifalar va ularni amalga oshirish jarayoni ko‘rsatilgan.

Men xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, Faoliyati bevosita hozirgi zamon nikoh-oila munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lgan mutasaddi xodimlari, amaliyotchi psixologlar, mahalla faollari o‘zlarining kundalik ishlarida o‘zbek oilasining bunday ijtimoiy-psixologik, etnopsixologik xususiyatlari haqidagi ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida erishilgan natijalardan va ularning mualliflari tomonidan ilgari surilgan nazariy g‘oyalardan foydalansalar foydadan holi bo‘lmaydi.

⁵Rasulova Z.A. O‘zbeklarda oila-nikoh an’alarining ijtimoiy va etnik psixologiyasi. Psixol. fan. dokt. ... diss. 19.00.05. –T.,2018. -210 b.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Morgan L.G. Drevneye obshchestvo ili issledovanii liniy chelovecheskogo proressa oi dikosti cherez varvarstvo k sivilizatsii. L.:1935. 368 s.
2. Ergasheva M. Fitrat merosida nikoh va oila masalalari //Qonun himoyasida.- 2003.-№4(88).-B.28.
3. Rasulova Z.A. O'zbeklarda oila-nikoh an'analarining ijtimoiy va etnik psixologiyasi. Psixol. fan. dokt. ... diss. 19.00.05. –T.,2018. -210 b.
4. Согинов Н.А. Социально-психологические особенности удовлетворенности браком в узбекской семье. Дисс... канд. психол. наук. – Киев - 1990. - 213 с
5. Google. Ru
6. Ziyouz.net